

## INTERAKTIV O'QUV O'YINLARIDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

(bo'lajak tarbiyachilar misolida)

**Ergashova Munisa Hoshim qizi**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti  
mustaqil izlanuvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining ta'lim jarayonida **interaktiv faol o'quv o'yinlaridan foydalanishning innovatsion yondashuvlari** ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Talabalarning ta'lim olish jarayonida interaktiv o'yinlardan foydalanish ularning amaliy faoliyatda o'yinlar bolalarning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional hamda ijodkorlik ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishadi. Shuningdek interaktiv o'yinlarni ta'lim muhitiga samarali qo'llash talabalarda kompetensiyaviy yondashuv va integrativ ta'lim metodologiyalari bilan integratsiyalashgan shakllari ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga o'rni tahlil qilinadi. Maqolada interaktiv (interfaol) o'quv o'yinlarining ta'lim sifatini yaxshilashdagi roli, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil o'rganish orqali nazariy bilimlarini o'zlashtirishning soddalashtirilishi hamda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini boyitishdagi afzalliklari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'yin, integratsiya, geyzer, pitsa, kasbiy kompetensiya, kommunikatsiya, samarali ta'lim, interaktiv.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные подходы к использованию интерактивных активных образовательных игр в образовательном процессе дошкольников с научно-педагогической точки зрения. Изучается использование интерактивных игр в образовательном процессе обучающихся, изучается влияние игр на развитие познавательных, коммуникативных, социально-эмоциональных и творческих навыков детей в практической деятельности. Также анализируется роль эффективного использования интерактивных игр в образовательной среде, интегрированной с компетентностным подходом и интегративными образовательными методиками, в процессе их профессиональной подготовки. В статье обосновывается роль интерактивных образовательных игр в повышении качества образования, обеспечении активного участия обучающихся, упрощении усвоения теоретических знаний посредством самостоятельного обучения, обогащении развивающей образовательной среды.

**Ключевые слова:** Игра, интеграция, гейзер, пицца, профессиональная компетентность, коммуникация, эффективное образование, интерактив.

**Abstract:** This article examines innovative approaches to the use of interactive, active educational games in preschool education from a scientific and pedagogical perspective. It examines the use of interactive games in students' learning and their impact on the development of children's

cognitive, communicative, social-emotional, and creative skills in practical activities. It also analyzes the role of the effective use of interactive games in an educational environment integrated with a competency-based approach and integrative educational methods during professional development. The article substantiates the role of interactive educational games in improving the quality of education, ensuring active student participation, facilitating the acquisition of theoretical knowledge through independent learning, and enriching the developmental educational environment.

**Key words:** Igra, integration, geysler, pizza, professional competence, communication, effective education, interactive.

Zamonaviy ta'lim muhitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ta'lim jarayonlarini integrativ usulda tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalariga aylanmoqda. Chunki XXI asr fan va texnologiyalarning jadallashuvi ortidan ta'lim muhitida ham jadallashtiruvchi va soddalik bilan bilim olishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Bugungi davr talabarlari kutubxonalardan emas balki internet tarmoqlarida ma'lumotlarni tezlik bilan olishni ma'qul ko'rishmoqda. Bunday holat albatta bilim olish jarayoni ham xuddi shu usulda osonlik va ularga qiyinlik tug'dirmaydigan shaklda olishni istashmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisidan doimiy o'z ustida ishlashni hamda talabalarni faol o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.

Mamlakatimizda ta'lim mazmuni va sifati ustuvor masala sifatida qaralmoqda. Ta'lim sohasini rivojlantirish, qisqa vaqt mobaynida samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish sohadagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ta'lim tashkilotlarida ilmiy hamda amaliy zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Mashg'ulotlar jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda ularda shaxsiy fikrlar orqali amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan metodlarni qo'llash orqali ularda kasbiy sifatlar va pedagogik mahoratini oshirish imkoni yaratilmoqda<sup>18</sup>

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.<sup>19</sup>


O'quv mashg'ulotlarida talabalarning faolligini oshirish va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishga qaratilgan o'yinlar, ularning kasbiy kompetentligini oshirishda xizmat qiladi. Kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakaning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda kasbga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish ularning intellektual salohiyatini optimallashtirishga yordam beradi [2]. Mashg'ulotlar jarayonini tashkil etishda o'yin texnologiyalarini qo'llash pedagoglarningishini osonlashtiradi. Mashg'ulot jarayonida qisqa vaqt davomida nazariy bilimlarni samarali egallashga qaratilgan metodlardan foydalanish, yakka va jamoaviy topshiriqlar orqali ularning dunyoqarashini

<sup>18</sup> "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonfarmoni, 29.10.2020 yil

<sup>19</sup> X. Meliyev, O. Jamoldinova, K. Risqulova. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. Zarvaraq nashriyoti. Toshkent-2021. 25-bet.

shakllantirishga asoslangan usullar samarali natija beradi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali ularning mashg'ulotdagi aktivligi oshadi hamda qiziqishining rivojlanishiga fundamental asos qo'yiladi [3, 4].

### Issiq geyzer usuli




1-rasm: Issiq geyzer sxemasi

Nazariy ma'lumotlarni bu shaklda ham aks ettirish juda samarali natija beradi. Bu usulni mashg'ulotlar jarayonida ham qo'llash mumkin. Talabalarning lug'at boyligini oshirish hamda ilmiy terminologiyadan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

### “Belgilar sehriga rang ber”

Mazkur o'yinni jamoaviy va yakka tartibda tashkil etish mumkin.

Jamoaviy shaklda tashkil etilganda bolalarni sonidan kelib chiqib 5 yoki 2 guruhga bo'lib o'ynash mumkin.



5 ta guruhga bo'linganda har bir guruh uchun rasmda ko'rsatilgan geometrik shakllar bo'lib beriladi. Jamoaning har bir ishtirokchisi o'zi guruhiga biriktirilgan rangni bo'yashi lozim. Buning uchun xonaning bir tomoniga guruhlar sonidan kelib chiqib rasm chiqarib stol ustiga qo'yiladi. Jamoa a'zolari o'z guruhlariga tegishli shaklni bo'yashadi. Ushbu o'yinni bir necha xil shaklda bolalarga taklif etish mumkin.

### “Pitsa” usuli



Ushbu usul orqali talabalar mavzuga oid savollarga javob yozishadi. Bunda pitsaga o'xshash kesilgan bo'lak ostida mavzuga tegishli savollar yozilgan bo'ladi. Talabalar o'zlari yoqtirgan pitsa bo'lagini olib unda yozilgan savolga javob yozishadi. 10 daqiqa vaqt savollarga javob yozishga beriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to'g'risigi PF-6097-son farmoni 29.10.2020 yil
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.;2013 yil.
3. <https://lex.uz/>
4. <https://www.wikipedia.org/>
5. Лобашев В.Д., Талых А.А., Зименкова Ф.Н. Элементы творческой деятельности в технологическом образовании студентов // Педагогика и психология образования, - М: МПГУ, №4, 2016.- С.59-65.